

O‘TKIR HOSHIMOV HAYOTI VA IJODINI O‘RGANISH YUZASIDAN DARS ISHLANMASI

Sh.Aldasheva

*Nukus davlat pedagogika instituti
dotsenti, (PhD)*

“Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi” [Q.Yo‘ldoshev 2-17]

“O‘qituvchi o‘z ishiga ijodiy yondashsa, albatta, o‘quvchilar faoliyatida o‘z aksini topadi va ularning yetuk shaxslar sifatida shakllanishiga xizmat qiladi”. [Q.Husanboyeva, R. Niyozmetova 3-60] .

Olimlarimizning yuqorida bildirilgan fikrlari asosida O‘tkir Hoshimov hayoti va ijodini o‘rganish yuzasidan quyidagicha mulohazalarni yozdik.

Mavzu: O‘tkir Hoshimov hayoti va ijodi. “Dunyoning ishlari” qissasi haqida Darsning maqsadlari:

a) ta‘limiy maqsad: O‘tkir Hoshimov hayoti va ijodi. “Dunyoning ishlari” qissasi. mavzusi bo‘yicha yangi bilimlar berish bilimlarni mustahkamlash, o‘quvchilarga mavzu haqida nazariy ma‘lumotlar berish, o‘quvchilarda mavzu bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikmalarni hosil qilish .

b) tarbiyaviy maqsad: O‘quvchilarda ma‘naviy-axloqiy fazilatlarni tarbiyalash, vatanparvarlik, ezigulik, sadoqat, mehr-muhabbat, insoniylik, samimiyat insonlarning o‘zaro do‘stlik kabi fazilatlarni kamol toptirish va asar orqali axloqiy tarbiya berish;

v) rivojlantiruvchi maqsad: O‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini, tafakkurini, og‘zaki va yozma nutq malakalarini rivojlantirish, erkin fikrlashga, o‘rtoqlari bilan hamkor bo‘lib o‘qishga o‘zgalarni hurmat qilish o‘rgatish o‘quvchilarning bilim, ko‘nikmalarini boyitish.

Dars tipi: yangi bilim beruvchi dars.

Ta‘lim metodlari va texnologiyalari: Darslik, adibning portreti, adib ijodiga oid rasmlar, O‘tkir Hoshimov asarlari, mavzuga oid qo‘llanma, test savollari, tarqatma savollar.

Darsga ajratilgan vaqt miqdori: 45 minut.

Darsning borishi.

I. Tashkiliy qism. (5 daqiqa)

- a) o‘quvchilar bilan salomlashish;
- b) o‘quvchilarni darsga hozirlash;
- d) o‘quvchilar davomatini aniqlash;


O‘ZBEK TILI TADQIQI VA TA‘LIM MUAMMOLARI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

II. Uy vazifasini so‘rash va baholash. (10 daqiqa)


“*Frontal guruh bilan ishlash*” bunda o‘quvchilar 6 kishilik 3 guruhga ajraliladi va ulardan uy vazifasi so‘rab olinadi buning uchun o‘qituvchi kichik taraqtmalardan foydalanadi tarqatmalarga o‘tilgan mavzu: “Po‘latjon yuz tup ko‘chat ekmoqchi she‘ri haqida” savollar tayyorlab qo‘yilgan bo‘ladi har bir tarqatmada guruhlarga 3 tadan savollar bo‘ladi guruhlar savollarga javob topadilar va boshqa guruhlarning ham savollarga javobini tinglaydilar. O‘qituvchi uyga vazifa yuzasidan berilgan javoblarga qarab guruhlarni baholaydi.

III. Yangi mavzu bayoni (15 daqiqa):

Adibning hayot yo‘liga nazar tashlaydigan bo‘lsak, uning xat tashuvchi, musahhah, muxbir, gazetada bo‘lim mudiri, nashriyotda va jurnalda bosh muharrir kabi bosqichlarni bosib o‘tganiga guvoh bo‘lamiz...




O‘ZBEK TILI TADQIQI VA TA’LIM MUAMMOLARI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI



- O‘tkir Hoshimov haqida nimalarni o‘rgandingiz?
- Yozuvchi qachondan ijod qila boshlagan?
- O‘tkir Hoshimov birinchi asari orqali kimning e‘tiborini qozongan?
- Siz ham she‘rlar, hikoyalar yozasizmi, aytib bering?

Tarmoqlash usuli “Tarmoqlash usuli” orqali o‘quvchilarga berilgan yangi bilimlarni mustahkamlab olamiz bu ko‘rinishdagi klasteri to‘ldirishni o‘quvchilarni o‘ziga beramiz. Guruhlar uni o‘zaro hamkor bo‘lib to‘ldiradilar. Uni to‘ldirish orqali o‘quvchilarga berilgan yangi bilimlarni mustahkamlab olamiz bu ko‘rinishdagi klasteri to‘ldirishni o‘quvchilarning o‘ziga beramiz. Guruhlar uni o‘zaro hamkor bo‘lib to‘ldiradilar. Uni to‘ldirishda olgan yangi bilimlaridan foydalanadilar.



Bu jarayonda o‘qituvchi guruhlarning qanday joylashganligini aniq kuzatib turish imkoniga ega bo‘lishi kerak, sababi jamoa a‘zolarining har birining ishtirokiga

alohida e’tibor qaratiladi. Bu texnologiya o‘quvchilarning yuzma-yuz muloqot qilishi asosiga tuziladi. Unda ruhlantiruvchi, qiziqtiruvchi, qo‘llab-quvvatlaydigan, bahslashishga yo‘naltiradigan usullardan biri bo‘lib, har bir o‘quvchi va jamoa a‘zolari vazifaga mas’uliyat bilan yondashishi talab qilinadi. Ular orasida ijobiy do‘stona muhit yuzaga keladi, umumiy bir mavzu atrofida birlashadi. Har bir guruh faoliyatiga qarab baholanadi. O‘qituvchi darsni yakunlaydi, sifatini va yutuqlarini baholaydi, guruh a‘zolarining muhokamasiga e’tibor qaratadi, guruhlarning natijalarini muhokama qiladi; o‘quvchilar bundanda yaxshiroq tayyorlanish rejalarini tuzadi.

V.O‘quvchilarni baholash 3 daqiqa

Uyga vazifa. O‘quvchilar uyda mustaqil o‘zlashtirishlari uchun, adibning hayoti va ijodini o‘qib kelish hamda mustaqil ravishda kichik bir asarcha yozib ko‘rishni topshirish. Uyga vazifa qilib bu topshiriqni berish yozuvchi hayotidan ilhomlangan o‘quvchini, qalam ushlagga undaydi. Bu esa, bola qalbida o‘ziga bo‘lgan ishonch tuyg‘usini yuzaga chiqishiga olib keladi.

Hamkorlikda amalga oshirilgan ta’lim nafaqat oson va qiziqarli balki, samarali hamdir. Jamoatchilik tuyg‘usi, bir-biriga yelkadoshlik hissi o‘quvchilarda ezgu axloqiy tarbiyaning yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Biz shunga guvoh bo‘ldikki, adabiyot darslarida har bir mavzuga, har bir darsga o‘ziga xos pedagogik yondashish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Azizxo‘jayeva N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T., 2006.
2. Q.Yo‘ldoshev. Adabiyot o‘qitishni yangilash metodikasi O‘UM-Toshkent-2022
3. Q.Husanboyeva, R.Niyozmetova. “Adabiyot o‘qitish metodikasi” - T: “Innovatsiy”, 2020.
4. Rajabova I.Interfaol usul – ta’lim samaradorligi omili. Til va adabiyot ta’limi – T., 2015-yil. 8-son
5. O‘tkir Hoshimov “Daftar hoshiyasidagi bitiklar”.-T.:Ma’naviyat 2018